

Xi, bu o'zida bog'irsada yo'q o'zi o'zida ko'ribman, anvoyi gullarga termilib bahra olayotgani yo'q. Xayoli boshqa narsada.

Sigaretni chetga otdim-da, borib uning yoniga yalpaydim. U, ko'zlarini jovdiratib, menga bir qarab qo'ydi. Sezdimki, g'irt o'shandaqalardan.

To'g'risini aytsam, unga qarab turib, negadir achinib ketdim. Hali yoshgina ekan.

Kelib o'tirishga o'tirdim-u, birinchi bo'lib gap otishga yuragim betlamay, kalovlanib qoldim. Diqqatim oshib, yana sigaret tutatdim.

Shunda u men tomonga moyilon bo'lib, ko'zlarimga sinchkovlik bilan tikildi. Chiroyli jilmayib qo'ygach, shamador bir so'z qotdi:

Peshma-pesh chekib qoldingiz? Yanglishmasam, biron narsaga xumor bo'lyaptilar shekilli?

Yosh bo'lsang ham, ko'p ishni ko'rganga o'xshaysan, deb o'yladim ichimda. Ayni paytda, tuzog'imga o'zi bosh tiqqanidan ko'nglim yorishdi.

Xumor bo'lganda qandoq! dedim sumalakdek suyulib. Birga gaplashib xumor yozadiganni topolmay dog'damiz xolos.

Endi u menga yaqinroq surilib, kutilmaganda, gapni dangalidan boshladi.

Biz ikkitamiz, narigi bog'kursida o'tirgan sherigini ko'z qirida ko'rsatdi u. Agar, sizniyam do'stingiz bo'lsa...

Umrimde hech kimga do'st bo'lmaganman! deya ochig'ini aytib qo'yaqoldim men. Ammo-lekin, meni ikki kishi deb hisoblayveringlar.

Yo'g'-e! ishonqiramay, menga boshdan-oyoq razm solib chiqdi u. Sizni qiynab qo'ymaylik tag'in?

O'zimni salobatliroq ko'rsatishga tirishib, chimirilganча dimoq ishirdim.

Ming shukurki, shungayam qiynaladigan ahvolga tushganimizcha yo'q, dedim gerdayib va "odatiy standart"ga nisbatan ikki hissa ko'p pul uzatdim. Qani, tezda do'konga yugursinlar-chi, yigitning guli. Sen vino olib kelguningcha, sheriging ikkovimiz stakan topib turamiz.

1978